

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**  
**(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**

20 /22-LS – sonli

“07” *aprel* 2022 yil

Samarqand sh.

Bizlar “Samarqand mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (Keyingi o‘rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2021 yil 28 sentyabrdagi 150-sonli buyruq asosida ish yurituvchi direktor o‘rinbosari **L.Barakayev** bir tomondan «Bino va Yo‘l Loyiha» MCHJ (Keyingi o‘rinlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi **O.Xonkeldiyev** ikkinchi tomondan “Samarqand mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” DUK xarid komissiyasining 04.04.2022 yildagi 57536-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig‘i bo‘yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Paxtachi tumani Qo‘shxavuz MFY Farovon ko‘chasini joriy tamirlash uchun loyiha-smeta xujjatlarini belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich ma‘lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to‘lash majburiyatini oladi.

**2. SHARTNOMA BAHOSI**

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 1 650 000 (Bir million olti yuz ellik ming) so‘mni tashkil qiladi.

**3. TO‘LOV TARTIBI**

3.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G‘aznachilikdan ro‘yxatdan o‘tgan kundan boshlab 10 (o‘n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o‘n besh) foizi miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi.

3.2. To‘lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to‘lovlar pul ko‘chirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko‘rsatilgan ko‘chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag‘i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so‘ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so‘ng 30 (o‘ttiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag‘ moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to‘lovni amalga oshira olmaydi va to‘lov kechiktirilishi uchun javobgar bo‘lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo‘lganda;
- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;

**4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI**

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunidek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari ma‘lumotlari asosida barpo etilgan ob‘ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma‘lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o‘z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma‘lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko‘rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida «Bajaruvchi»ga yordam ko‘rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning

roziligisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. **«Buyurtmachi»** tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni **«Bajaruvchi»**ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha **«Bajaruvchi»** o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. **«Bajaruvchi»** tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini **«Buyurtmachi»**ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

## 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, **«Bajaruvchi» «Buyurtmachi»**ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarni bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. **«Bajaruvchi»** loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki **«Bajaruvchi»** xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlar va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar **«Bajaruvchi»** tomonidan to'lanadi.

5.3. **«Bajaruvchi»** o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan **«Buyurtmachi»**ning roziligisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarni o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. **«Bajaruvchi»** loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarni amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab **20 kun** ichida **«Bajaruvchi»** tomonidan loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi **«Buyurtmachi»**ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. **«Bajaruvchi»** ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini **«Buyurtmachi»** bergan topshiriqda belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng **«Bajaruvchi» «Buyurtmachi»** ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. **«Buyurtmachi»** ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida **«Bajaruvchi»** tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlar bajarilmagan taqdirda, **«Buyurtmachi»** kamida 5 (besh) kun oldin **«Bajaruvchi»**ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlari bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limiga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limida belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi. Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,4 foizi

miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

### TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

#### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati” DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

L/s: 304521860184017045129118023

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220



Direktor o'rinbosari Barakayev

#### “BAJARUVCHI”

Nomi: «BINO VA YO'L LOYIXA» MCHJ

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiev ko'chasi 3-uy

Bank nomi: AT “Aloqabank Samarqand filiali


Xisob raqami: 22626000500963451001

MFO: 00401

СТИР (ИНН): 305956641

ОКЭД: 71110

Direktor: O.Xonkeldiyev



Mazkur shartnoma 29.08.2022 yilning «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan bo'lganligi, Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi marklarning shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist [Signature]

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010

Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED:97160

Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxatga olindi. [Signature]

[Handwritten signatures and notes in blue ink]



**“TASDIQLAYMAN”**

**“Samarqand mintaqaviy yo'llarga  
buyurtmachi xizmati” DUK  
direktor o'rinbosari komissiya raisi**

**L.Barakaev**

## **BAYONI**

**№ 2/3-LS-22**  
Samarqand shahri

**«07» aprel 2022 y.**

Raislik qiluvchi

L.Barakaev

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Ermamatov Sodiqjon  
Dehqonboyevich

Komissiya a'zosi, Bosh muxandis

Bekmurodov Eldor  
Rashidovich

Komissiya a'zosi, Texnik kuzatu va bajarilgan ishlarni  
qabul qilish bo'limi boshlig'i,

Shakatov Faridun  
Alisherovich

Komissiya a'zosi, Loyixa ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abduraimo Sobir  
Mamarajabovich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish va texnik bo'lim  
boshlig'i,

Shuxrat Tursunov  
Istatovich

Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va  
shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

### **KUN TARTIBI:**

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Samarqand mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati” DUK direktor o'rinbosari v.b L.Barakaev so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyati ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan

1. Samarqand viloyati **Paxtachi tumani Istiklol kuchasidan M-37 aylanma yo'liga o'tar ko'cha (Tosh ko'prik qabristoni),**
2. Samarqand viloyati **Paxtachi tumani Qo'shxovuz MFY Farovon ko'chalarini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida.**

(L.Barakaev, S.Ermamatov, E.Bekpulatov, S.Abduraimov, F.Shakatov)

“Samarqand mintaqaviy yullarga buyurtmachi xizmati” DUK tomonidan 2022 yil 19 martda Ўzbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga

1. Samarqand viloyati Paxtachi tumani Istiklol ko'chasidan M-37 aylanma yo'liga o'tar ko'cha (Tosh ko'prik qabristoni) bo'yicha loyixa smeta xujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha №57540-lot.

2. Samarqand viloyati Paxtachi tumani Qushxovuz MFY Farovon ko'chalarini joriy ta'mirlash uchun loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish to'g'risida. №57536-lot raqamlari bilan e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 4 apreldagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "**Bino va yo'l loyiha**"MChJ korxonasi g'olib deb topilganligini inobatga olib:

### QAROR QILINDI:

1. Yzbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomaga bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Direktsiya Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i. Sh.Tursunovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 4 apreldagi elektron bayonnomasiga asosan g'olib "**Bino va yo'l loyiha**"MChJ korxonasi bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

3. Loyixa ta'minoti bo'limi boshlig'i F.Shavkatov sifat darajasi nazorat qilinsin.

### Komissiya a'zolari

Ermamatov Sodiqjon Dehqonboyevich



Bekmurodov Eldor Rashidovich



Shakatov Faridun Alisherovich



Abduraimo Sobir Mamarajabovich



Shuxrat Tursunov Istatovich

